

UO‘K(UDC, УДК): 82.091

**MUHABBAT YO‘LDOSHEVA IJODINING ADABIY ERTAK JANRI
TARAQQIYOTIDA TUTGAN O‘RNI²****Xamroqulova Xurshida Quvvatovna**

Toshkent amaliy fanlar universiteti professori,

filologiya fanlari doktori,

Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: xurshidaxamroqulova@27gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-1850-9270

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola o‘zbek bolalar adabiyotiga o‘zining nasriy asarlari bilan muhim hissa qo‘shayotgan yozuvchi Muhabbat Yo‘ldosheva hayoti va ijodiy faoliyatini qamrab olgan dastlabki adabiy portretidir. M.Yo‘ldosheva 40 yildan ortiq ijodiy faoliyatini bolalar adabiyotiga bag‘ishladi. O‘zining turli mavzudagi yuzlab adabiy ertaklari, nasrning ertak-qissa, ertak-roman janrlarida bitilgan asarlari bilan bugungi bolalar adabiyotining ilmiy fantastika yo‘nalishini boyitib kelayotgan ijodkorning qator adabiy ertaklari, “Buyuk sut daryosi”, “Sayohatchi pingvincha” kabi ertak-qissalari va “Qo‘hi qof shahzodasi” nomli ertak-romani tahlilga tortildi. Shuningdek, adabiy ertaklarning janriy belgilari, badiiy tafakkur shakllanishida adabiy ertaklarning o‘rni, ertak-qissalarda insoniy tuyg‘ularning badiiy ifodasi, xalq og‘zaki ijodidan oziqlanib yaratilgan “Qo‘hiqof shahzodasi” nomli sarguzasht asarning badiiyati haqidagi ayrim mulohazalar bayon etildi. M.Yo‘ldosheva ijodi tahlili orqali bolalar adabiyoti rivoji va taraqqiyoti bilan bog‘liq ayrim ilmiy-nazariy xulosalar chiqarishga erishildi.

KALIT SO‘ZLAR

Ertak, adabiy ertak, ertak-qissa, ertak-roman, mifologik qahramonlar, folklor motivi, janr, fantastik olam, sarguzasht fantastika, ilmiy fantastika, sayyor qahramonlar.

Received: March 10, 2025**Accepted:** April 5, 2026**Available online:** May 10, 2026

² For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Xamroqulova X. Muhabbat Yo‘ldosheva ijodining adabiy ertak janri taraqqiyotida tutgan o‘rni. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 3(11) — B. 20-40.

THE ROLE OF MUHABBAT YULDOSHEVA'S CREATIVE WORK IN THE DEVELOPMENT OF THE LITERARY FAIRY TALE GENRE

Khamrakulova Khurshida Kuvvatovna

Professor of the Tashkent University of Practical Sciences,

Doctor of Philological Sciences

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: xurshidaxamroqulova@27gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-1850-9270

ABSTRACT

This article is the first literary portrait covering the creative work and life of the writer Muhabbat Yuldosheva, who is making a significant contribution to Uzbek children's literature with her prose works. M. Yuldosheva has dedicated more than 40 years of her creative career to children's literature. This article analyzes a number of literary fairy tales by the author, who continues to enrich the science fiction trend in contemporary children's literature with hundreds of her literary fairy tales on various topics and works written in the fairy tale-story and fairy tale-novel genres. Specifically, it examines her fairy tale-stories such as "The Great River of Milk" and "The Little Traveling Penguin", as well as her fairy tale-novel "The Prince of Koh-i-Qaf". Additionally, some considerations were presented regarding the genre characteristics of literary fairy tales, the role of literary fairy tales in the formation of artistic thought, the artistic expression of human emotions in fairy tale-novellas, and the artistry of the adventure work "Prince of Koh-i-Qaf", which was inspired by oral folk tradition. Through an analysis of M. Yuldosheva's work, it was possible to draw some scientific and theoretical conclusions related to the development and progress of children's literature.

KEYWORDS

Fairy tale, literary fairy tale, fairy tale-novella, fairy tale-novel, mythological heroes, folklore motif, genre, fantasy world, adventure fiction, science fiction, traveling heroes.

РОЛЬ ТВОРЧЕСТВА МУХАББАТ ЮЛДАШЕВОЙ В РАЗВИТИИ ЖАНРА ЛИТЕРАТУРНОЙ СКАЗКИ

Хамрокулова Хуршида Кувватовна

доктор филологических наук, профессор
Ташкентский университет прикладных наук,
Ташкент, Узбекистан

E-mail: xurshidaxamroqulova@27gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-1850-9270

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
<p>Данная статья представляет собой первый литературный портрет, охватывающий жизнь и творчество писательницы Мухаббат Юлдашевой, внесшей своими прозаическими произведениями значительный вклад в узбекскую детскую литературу. Более 40 лет своего творческого пути М. Юлдашева посвятила детской литературе. Автором статьи проанализированы многочисленные литературные произведения писательницы, обогатившей научно-фантастическое направление современной детской литературы сотнями сказок на различные темы, написанными в жанрах сказки-повести и сказки-романа, такими как сказки-повести «Великая молочная река», «Пингвинёнок-путешественник» и сказка-роман «Принц Кух-и Кафа». Кроме того, в работе представлены некоторые размышления о жанровых особенностях литературных сказок, роли литературных сказок в формировании художественного мышления, художественной передаче в сказках человеческих чувств, а также поэтике приключенческого произведения «Принц Кух-и Кафа», созданного под влиянием устного народного творчества. На основе анализа творчества М. Юлдашевой сделаны некоторые научно-теоретические заключения о развитии и прогрессе детской литературы.</p>	<p>Сказка, литературная сказка, сказка-повесть, сказка-роман, мифологические персонажи, фольклорный мотив, жанр, мир фантастики, приключенческая фантастика, научная фантастика, путешествующие герои.</p>

KIRISH

Bolalar uchun ijod qilish, bolalar darajasiga ko'tarilib asar yozish oson ish emas. Buning uchun bola qalbiga ega bo'lish, nozik did va kuzatuv, so'zni saralay bilish mahorati kerak. O'zida shu xislatlarni jamlay bilgan Muhabbat Yo'ldosheva qirq yildan ortiq ijodiy faoliyatida bolalarning aqliy salohiyati, kognitiv va ijodiy ehtiyojlarini tushunishga, bu ehtiyojlarni asarlarida ifodalashga intildi. Bolalar va kattalar, o'simliklar, buyumlar, antropomorf qahramonlardan mifologik qahramonlargacha adabiy axolisi doirasiga qamray olgan Muhabbat Yo'ldosheva ijodida adabiy ertaklar muhim o'rin tutadi.

Xalq ertaklari an'analarini davom ettirgan adabiy ertaklarning qator jihatlari uning mualliflik ertaklari sifatidagi o'rnini belgilaydi: Adabiy ertaklarning o'ziga xosligini quyidagicha ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Xalq ertaklaridagi ertakni birovdan eshitib bilganlik xususiyati adabiy ertakda muallifning voqeani ancha vaqtdan beri kuzatib yurganlik ottenkasi bilan almashadi. Ya'ni xalq ertaklariga xos bo'lgan "ekan" to'liqsiz fe'li, gap oxirida fe'l asosiga "-ardi" qo'shimchasining qo'shilishi bilan o'tgan zamon davom fe'lga almashadi. Jahon adabiy ertaklaridan davom etib kelayotgan bu an'ana, ayniqsa, M.Yo'ldosheva adabiy ertaklarining asosiy xususiyatiga aylangan. Fe'l zamonlaridagi bunday almashinuv voqea-hodisaning ertak muallifi guvohligida ro'y berganiday yoki shu muallifning ertak qahramonlarini ancha vaqtdan buyon bilib, kuzatib yurganiday tasavvur uyg'otadi.

2. Adabiy ertaklarda roviy (buni ertak muallifidan farqlash kerak) xalq ertaklaridagi yetakchilik maqomini kuzatuvchilik maqomi bilan almashtiradi. Ya'ni an'anaviy ertaklarda roviyning bayoni ertakni rivojlantirsa, adabiy ertaklarda asar qahramonlarining xatti-harakati asar dinamikasini belgilaydi. Shunga qaramay, syujetda roviyning ishtiroki sezilib turadi.

3. Adabiy ertaklar xalq ertaklaridagiday yengil bayon qilinmaydi, aksincha, hikoyadagi kabi ertakda ham dramatismning mavjudligi, ya'ni ertak qahramonlarning o'zaro suhbatlarida intrigalarning kuchayishi, qahramon psixologik kechinmalari bilan kitobxonning e'tiborini jalb qilinishi ertakni hikoyaga xoslab boradi.

4. O'zida nasrning janriy belgilarini qabul qilayotgan zamonaviy ertaklarni ertak-hikoya, ertak-qissa, ertak-roman kabi ko'rinishlarini farqlash mumkin. Hikoya tipidagi ertaklarda muayyan voqeaga urg'u berilsa (buni Muhabbat Yo'ldosheva ertaklari misolida kuzatish mumkin), ertak-qissa qahramoni "Sayohatchi pingvincha", "Ertakchi sichqon", "Qochoq qovoqcha" qahramonlari kabi qator sarguzashtlarni boshidan kechiradi va har qanday voqea-hodisa bosh qahramon atrofiga uyushadi. Ertak-romanda esa bir emas, bir necha qahramonning hayoti, ularning turli sarguzashtlari qalamga olinadi, qahramonlar hayoti badiiy mushohada

qilinadi, yozuvchi badiiy tafakkuriga ko‘ra muayyan hayotiy yechim taqdim qilinadi. Bu holni Muhabbat Yo‘ldoshevaning “Ko‘hiqof shahzodasi” nomli ertak-romanida kuzatish mumkin.

4. Adabiy ertaklarning yana bir xususiyati sayyor qahramonlarning mavjudligi. Masalan, M.Yo‘ldosheva ertaklarida ayni bir qahramon turli ertaklarda uchrayverishi, ertakda tutgan maqomiga qarab sarlavhalardan ham joy olishi mumkin. Bu esa muallifga o‘z qahramoni haqidagi muayyan ma‘lumotlarni kitobxonga to‘la holda yetkazishiga sabab bo‘ladi. Yozuvchining “O‘tloqdagi ziyofat”³ ertagi qahramoni Xonqizining tug‘ilgan kuniga bag‘ishlangan ertakda kitobxon xonqizining yuz yoshga kirishi mumkinligi haqida ilmiy faktlar bilan o‘rtoqlashsa, ayni shu qahramon haqidagi “Xonqizi buvining evarasi” deb nomlangan boshqa ertakda qahramonning evaralari bilan baxtiyor hayot kechirayotgani gavdalanadi. Xonqizining yuz yosh umr kechirishi, ya‘ni ikki bahor umri yuz yoshga teng ekanligi haqida bilgan o‘quvchi uning evarasi borligidan ajablanmay qo‘yadi. M.Yo‘ldosheva ijodida yonarqurt obrazi ko‘p uchraydi. Kichik ertaklardan roman-ertaklarigacha o‘sib chiqqan bu obraz tabiati bilan bog‘liq ilmiy faktorlarning adabiy asarga ko‘chirilishi kitobxonni bee‘tibor qoldirmaydi.



5. Jonzotlar, o‘simliklar hayoti, ularning turmush tarziga oid muhim ma‘lumotlarning sujet zamiriga singdirib yuborilishi, ertak qahramonlarining zamon bilan hamnafas ekanligi adabiy ertaklarning yana bir xususiyatidir. Bu hol ertakka oddiy sarguzashtga ega ko‘ngilochar asardan ilmiy tushunchalari asosida badiiy tafakkur qila olishga qodir o‘quvchini tarbiyalaydigan adabiy manba sifatida qarashga o‘rgatadi. Masalan, “Biz shabnamimiz, deb javob berdi tomchilardan biri. – Havodagi suv zarralari ko‘payib, og‘irlashib ketganidan gullarning barglariga qo‘nadi va shunda biz paydo bo‘lamiz” (Yo‘ldosheva M., 2022, 56) degan bayonda ilmiy ma‘lumotlar o‘simliklarning kundalik hayot tarzi sifatida osongina tushuntirib beriladi.

Albatta, ertaklarda muayyan hayotiy ma‘lumotlar o‘quvchini zeriktiradigan quruq axborot tarzida emas, balki qahramon sarguzashtlarini qiziqarli tus olishiga yo‘naltiradigan ilmiy tafakkurning ilk kurtaklari sifatida berib borilishi adabiy asarning estetik ta‘sirini va hayotiy qimmatini oshiradi. M.Yo‘ldosheva adabiy ertaklarida ma‘lum obraz yoki detalga xos hayotiy faktorlar, ba‘zan hayotdan olingan saboqlar hikmatlar ko‘rinishida bayon etiladiki, bu yosh kitobxonda muayyan narsa-hodisalar haqidagi dastlabki bilimning shakllanishiga xizmat qiladi.

³QR kod bilan muallifning “O‘tloqdagi ziyofat” audio ertagini tinglashingiz mumkin.

Masalan, “Odatda mayda yirtqich hayvonlar va qushlar o‘zi yaxshi bilmaydigan raqibidan sal ehtiyotkorroq bo‘lishadi” (“Sayohatchi pingvincha”) tarzidagi kuzatuvlari uning o‘lkashunos adiba ekanligini ko‘rsatadi. Hayotiy faktorlarning badiiy detalga aylanish hodisasi “O‘rmon ertaklari” turkumidagi ertaklarda kuzatiladi. Turkumning to‘rtinchi kitobidan joy olgan ertaklar orqali tog‘larda o‘sadigan sovuqqa chidamli, ammo quyosh nuri yetarli bo‘lmaganidan mevalari nordon ta‘mga ega toklar haqida ma‘lumot uchraydi. Muallifning badiiy fantaziyasiga ko‘ra, ertak qahramoni ajdahochaning onasi toklarni g‘or oldiga keltirib ekib, unga uzoqroqdan olov purkab sun‘iy isitishi tufayli sarxil meva yetishtirganini o‘qiganingizda ertak qahramonlarining zamon bilan hamnafas bo‘lib borayotganini kuzatasiz. O‘quvchini o‘ziga tortadigan hayotiy ma‘lumotlar M.Yo‘ldoshevaning “Onamning ertaklari” kitoblariga kirgan ertaklarda ko‘plab uchraydi. Masalan, “Sayohatchi Pingvin” nomli turkum ertakda Saqoqushning dengiz balig‘i bilan oziqlanishi, demakki, umrining asosiy qismi dengiz bilan bog‘liq ekanligi, Ko‘rsichqonning vazifasi yerni yumshatish ekani, pingvinlarning palaponi endigina tuxumdan chiqqan paytida kulrang patlar bilan qoplanishi, tullagandan so‘ng oq va qora patlar o‘sib chiqishi, ayni shu qushlar bo‘ronqush va oqchorloqlarning asosiy yemishi ekanligi haqidagi ma‘lumotlar o‘quvchilarda kuzatuvchanlikka chorlaydi.

ASOSIY QISM

Ijodini ilmiy fantastik asarlar yozish bilan boshlagan adibaning mualliflik kitoblari soni ellikdan ortadi. Yana ellikka yaqin asarlarni rus, qozoq, turk tillariga, bu tillardan o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan adiba kattalar va bolalar uchun baravar ijod etsa-da, adabiy ertak janri faoliyatining muhim qirrasini hisoblanadi. Atrofni kuzatish, hayotiy saboqlar, borliqni boricha qabul qilish Muhabbat Yo‘ldosheva adabiy ertaklarining tom ma‘nodagi manbasi hisoblanadi. Shuning uchun ham uning ertaklarida yashiringan hayotiy haqiqatlarni anglash oson kechadi. “Bug‘doylar” deb nomlangan ertakda “Yashashdan hammaning o‘z maqsadi bor” ekanligini anglatgan bug‘doy amaki don yanchilib odamlar ne‘matiga aylanishini o‘zlarining asosiy maqsadi deb bilsa, “Xoldor toychoq” (Yo‘ldosheva M., 2021, 22) nomli ertakda “Tashqi ko‘rinishning qanday bo‘lishi muhim emas, balki ichki chiroy muhim” degan fikr bilan yashagan xoldor ot o‘zining beg‘ubor olami, keng fe‘li bilan atrofdagilarning muhabbatini qozonadi. Ya‘ni go‘zal axloq insonni bezaydi degan fikr ertakning asosini tashkil qiladi. Yozuvchi qahramonlarining barchasida muayyan maqsad bor. Bu ularni yangi hayot sari eltadi. Nekbin tuyg‘ular ularni dadil sayohatlarga undaydi. Hatto “Oldinda butun boshli kelajak bor” (“Qochoq qovoqcha”) deb yo‘lga chiqqan Qovoqchaga hamrohlik qilgingiz keladi. Bularning hammasi umr yo‘llarida turli sinovlarni boshidan kechirgan muallifning hayot pozitsiyasini ko‘rsatadi. Muhabbat

Yoʻldosheva umr sinovlari oldida oʻzini yoʻqotmay, kelajakka ishonch bilan qaragan adibalardan. Bu uning hayot va ijodiy yoʻlida ham aks etgan.

Sheʼriyatda husni taʼlil degan badiiy sanʼat bor. Unga koʻra ayrim hayotiy haqiqatlar muallifning badiiy haqiqatiga koʻra oʻzgacha koʻrinish olishi mumkin. Odatda, sheʼriy asarlarga xos boʻlgan badiiy sanʼat muallif mahorati tufayli uning adabiy ertaklarida gʻayritabiiy xulosalarga olib keladi va bu xulosalar oʻquvchida eʼtiroz uygʻotmaydi, aksincha, hayotiy haqiqatlar badiiy haqiqatlar bilan ham boyib boradi. Jonivorlarning ayrim sifatlaridan ertaklar badiiyatida foydalana bilgan yozuvchi bogʻcha va kichik yoshdagi bolalar uchun moʻljallangan “Oʻrmon ertaklari” turkumida bu sanʼatdan unumli foydalanadi. Xususan, Hudhudning tikraygan toji xususidagi ertakni nasrdagi husni taʼlil sanʼatining muallif asarlariga xos talqini sifatida baholash mumkin. Baland uchishdan qushlar bilan bahs boylashgan Hudhud nihoyatda balandlikka koʻtariladi. “U shunaqangi balandga uchib chiqdiki, hatto qor bosgan togʻ choʻqqilari ham gugurt qutisidek boʻlib koʻrina boshladi. Faqat bunaqangi balandlikda judayam sovuq ekan. Sovuq qotganidan hatto Hudhudning boshidagi patlari tikka-tikka boʻlib ketdi.

Hudhud pastga uchib tushganida, barcha qushlar unga tasanno aytishdi. Hudhudning boshidagi sovuqdan tikrayib ketgan patlari esa oʻrniga tushmadi. Shundan beri Hudhudning boshidagi patlari xuddi tojdek tikrayib turadi” (Yoʻldosheva M., 2022, 17). Hudhud bilan bogʻliq kutilmagan yechim tarzi muallifning boshqa ertaklarida ham kuzatiladi. Oʻzini Quyosh boboning nabirasi deb atagan Qoqigul “Bilasanmi, yaqinda men bobomning yoniga chiqib ketaman” deganiga bola ishonadi. Negaki, qoqigullar vaqti bilan parga aylanib turli tomonga toʻzgʻib ketadi va koʻzdan ham yoʻqoladi. “Majnuntol” ertagida Majnuntolning suv havzalari boʻyida boshini solintirib oʻsishida ham yozuvchining badiiy haqiqatlari yuzaga chiqa boshlaydi. Goʻyo hamma bilan urishavergani, injiqligi sabab atrofda gilardan uzoqroqqa ketib qolgan majnuntol qilmishlaridan afsuslanib, boshini egib turishi yozuvchi tomonidan oʻziga xos talqiniga ega boʻlgan.

Muallif ertaklarida taʼlimiy xususiyatlar bilan barobar tarbiyaviy jihatdan ham oʻquvchiga taʼsir koʻrsatishga erishadi. Yozuvchi ertaklarida doʻstlik va sadoqatga xiyonat, manmanlik, andishasizlik insonni oʻzgalar oldida bebroʻ qiladigan insoniy illatlar tanqid qilinadi. Bu illatlarni badiiy obrazlar vositasida bolaga anglatishda adabiy ertaklarning didaktik tamoyillari muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. “Koʻrsichqonning quyoni aldab, u yetishtirgan sabzilarni kovlab olishi (“Koʻrsichqon”), Boʻrsiqning sarishtaligini qadrlamagan Tulki (“Doʻstlar”), kekkaygan oq sabzining qoʻyga yem boʻlishdan boshqa narsaga yaramasligi (“Oppoq sabzi”), Vaqvaqaning doʻsti Ninachini yeb qoʻyishga urinishi (“Vaqvaqa va Ninachi”) kabi qator epizodlarda yozuvchi doʻstlikka putur yetkazishi mumkin

boʻlgan xiyonat, andishasizlik, surbetlik, pala-partishlik, kibr kabi qator qusurlarni tanqid qilib oʻtadi.

M.Yoʻldosheva ertaklarining oʻziga xos xususiyatlari

Oʻzbek bolalar adabiyotining shakl va mazmun jihatidan boyishida M.Yoʻldosheva ijodining alohida oʻrni bor. Bu, avvalo, yangi obrazlar, yangi qiyofalar, yangi muammolar, yangicha uslub, bir soʻz bilan aytganda, yangi zamon va makon ruhining ifodasida boʻy koʻrsatsa, ikkinchi tomondan, Muhabbat Yoʻldosheva ijodi bilan hozirgi oʻzbek bolalar adabiyotida ilmiy fantastika yoʻnalishi rivojlanish bosqichiga oʻtdi. Zamonaviy bolalar kitoblariga sharhlar yozgan olim Ruxsora Toʻlaboeva mustaqillik davri bolalar adabiyotini quyidagi olti xususiyatini ajratib koʻrsatgan edi:

1. Yangi obrazlar, qiyofalar kirib keldi.
2. Texnika taraqqiyoti bilan bogʻliq unsurlar kiritildi.
3. Bolalar uchun ilmiy fantastik asarga asos solindi.
4. Yangi gʻoyalar bilan boyidi.
5. Bolalarga atalgan asarlar bevosita yangicha dizaynda chop etildi. Bolalar adabiyoti dizayn va multimediya bilan bevosita chambarchas bogʻliq holda shakllandi.
6. Bolalar adabiyoti manbalari jamlangan internet saytlari, mobil ilovalar yaratildi (Toʻlaboeva R. Rotanov A., 2024, 51). Bugungi bolalar nasrining katta ijodkori M.Yoʻldosheva asarlarida R.Toʻlaboeva belgilagan qirralar namoyon boʻlgan.

Bolalar ijodkorlari yaratgan asarlari bilan yosh kitobxonlar qalbiga yoʻl izladilar, ularning asarlari bir qancha xususiyati bilan mustaqillikkacha boʻlgan bolalar adabiyotidan farq qiladi. Ijodiy faoliyati davomida yuzlab ertaklar yozgan M.Yoʻldosheva hayotiy konsepsiyalarini ham mitti janr bagʻriga singdira olgan. Adabiy qahramonlarning bir oila davrasida jam boʻlib umr kechirishi, oila va oilaviy qadriyatlar muammosining badiiy talqini M.Yoʻldosheva ertaklari uchun xos boʻlgan alohida xususiyat. Shu bois Xonqizi buvi evarasi, fil yoki ajdarho oyisi, kapalak bolasi, ukki nabiralari bilan yashashdan zavq oladi, tuya qarindoshi lama bilan mehmondorchilik qiladi, aka-uka qunduzchalar yangi uyini bitirib uy toʻyi qilishadi va hokazo. Tuxumdan chiqqan oʻrdakchanning onasini izlab yoʻlga tushishida ham oilaga intilish sezilib turadi⁴. Oila davrasining muhimligi “Lola” ertagida Lolaning “Biz gullar esa yaqinlarimiz – opa- akalarimiz, qarindoshlarimiz va doʻstlarimizsiz yashay olmaymiz”(Yoʻldosheva M., 2022, 25) yoki “Kapalak” ertagida Gulbeorning “Bizning oilamiz katta, qarindoshlarimiz koʻp, shunga qaramay ahil va inoq yashaymiz” tarzidagi gaplarida ham taʼkidlangan. “Xonaki gullar” ertagi



4 QR kod bilan Oʻrdakchanning oyisi nomli 3D multfilmni tomosha qilishingiz mumkin.

qahramonlari gulzordan kelgan Kapalakdan qarindoshlari o'rtasida rishta bo'lishini so'rashida ham bir oilada jam bo'lmagan ertak qahramonlari armonlarida ular uchun oila muqaddas dargoh ekanligini sezish qiyin emas. Ayni vaqtda muallif yosh kitobxonga muhim qadriyatlar oilada shakllanishini kichik lavhalar orqali singdirib borayotganini kuzatish mumkin.

Sinchkovlik yozuvchi asarlarining ilk muvaffaqiyatini ta'minlaydigan omil ekanligini ta'kidlash lozim. Yozuvchi Erkin Malik bilan "Chumolillar saltanati" ertak-qissasi xususida suhbatlashganimizda, men bu jonzotlarning hayotini yigirma yil kuzatganman. Asar shu kuzatishlarimdan so'ng paydo bo'lgan, degan gapni aytgan edi. M.Yo'ldosheva ham kichik ertaklarida ana shu sinchkovligini namoyish qila olgan. "O'rdakchalarning siri" degan ertagida tovuq va uning jo'jalari onasining atrofida tarqoq xolda yuradi-yu, o'rdakning bolalari bir qator bo'lib yurishi, "Chigirtkaning qulog'i"da oyog'i sinib qolgani uchun kuy chala olmagan chigirtkadan sababini so'rashganida "mening quloqlarim oldingi oyoqlarimning boldirida joylashgan, quloqlarim eshitmasa kuy chala olmayman-da",- deb javob berishi ortida yozuvchining kuzatuvlarini sezish mumkin. Qovoqlar yomg'ir tomchilari paydo bo'lishi bilan palagining ostiga yashirinib olishi, xonqizining o'simlik biti hisoblangan shiralar bilan oziqlanib, sanitarlik qilishi kabi barcha uchun oddiy va tabiiy sanalgan qator hodisalar yozuvchining deyarli barcha asarlarida hayotiy jumboqlarning yechimi o'laroq talqin qilinadi. Shuningdek, na'matakning bir nomi gulira'no ekanligi, u buta holidagi tog'-toshlarda o'sishi, qovoq garchi polizda o'ssa ham, o'zi rezavorlar toifasiga kirishi haqida ham bolalar M.Yo'ldosheva ertaklari orqali bilib oladilar.

Ertaknavisning kuzatish, qiziqish, ilmiy bilish doirasi o'lkamiz hayotidan dunyo geografik kengliklargacha yoyiladi. Laqqabaliq daryo tubidagi balchiqda yotishi, baliqchalar, o'rdakchalar bilan oziqlanishi, hatto ayrim suv qushlariga ham qo'rqmay hujum qilaverishi, shimol dengizlarida yashovchi oq kitlarning faqatgina bayda baliqlar va qisqichbaqalar bilan oziqlanishi, ular pingvinga tegmasligini, ammo oq ayiqlar ularning ashaddiy dushmani ekanligi kabi hammaga ham noayon bo'lgan ma'lumotlar Muhabbat Yo'ldosheva ertaklarida bayon qilingan.

M.Yo'ldosheva tabiatning fusunkor go'zalligini his qiladigan yozuvchi. Yam-yashil o'tloq, turfa gullarga boy o'rmon va o'tloqlar yozuvchi ertak qahramonlarining doimiy makoni hisoblanadi. Bu yerdagi barcha qahramonlar chiroyli xulq egalari. Hatto bir qadar yoqimsiz bo'lgan Suvarak bola ham "judayam ozoda va sarishta"ligi bilan M.Yo'ldosheva ertaklari dunyosidan joy olgan. "Bo'ylari uzun-uzun, barglari xuddi archa shoxlariga o'xshab qirqilgan, oq, qizil, sariq, qizg'ish tusli nozikgullar", o'tloq chekkasida o'sadigan kamtargina alvonrang gulbargli lolaqizg'aldoqlar, qizil, sariq, oq va targ'il lolalar, bo'tako'z, momaqaymoq deb ataladigan qoqigullar, gulbarglari baxmaldek mayin, iforli binafsha, sal dimog'dor-u, ammo dilkash

atirgullar, soddadil moychechaklar, yorongullar, mehribon rayhonlar, gulbeor, gulbaxmal, gultojixo‘roz, gulsapsar, gulxayri, gulhamishabahor quvroq, chuchmoma, sariqbosh, tulkiquyruq, qo‘ng‘iroqgul, dastarbosh kabi anvoyi o‘simliklar; Xonqizi, Chumoli, Kapalak, Shilliqqurt, Ninachi, Chigirtka, O‘rgimchak, Asalari, Chirildoq kabi hasharotlar – bular M.Yo‘ldosheva ertaklarining doimiy qahramonlari. Ertaknavis tasvirlagan turli-tuman o‘simliklar, mayda hasharotlar, hatto kemiruvchi jonzorlar hayoti, yil fasllarining almashinishi bilan bog‘liq hodisalarning ertaklarga ko‘chirilishi yosh kitobxonni o‘lkaning ajabtovur tabiatidan ogoh qiladi, unga muhabbat uyg‘otadi. Yozuvchi yaratgan majoziy qahramonlar o‘zlarining oddiy turmush tarzi tabiatning oliy qonuniyatlari bilan mustahkam bog‘liq ekanligini kundalik hayoti misolida anglata oladilar. Bu holatni daraxtlarning yil fasllariga bergan javobida ham ko‘rish mumkin. Olma daraxti “Javob” ertagida kuzdan minnatdorlik sababini quyidagicha izohlaydi: *“Kuzjon, seni judayam yaxshi ko‘raman! – derdi olma daraxti. – Sen kelganingdan keyin olmalarim pishadi-yu, odamlar ularni terib oladi va men shoxlarimni egib turgan yukdan qutulaman”* yoki qishga *“Sen kelgach, qorli ko‘rpang ostida miriqib uxlab, dam olaman. Bahoroyini ham yaxshi ko‘raman, chunki u meni uyqudan uyg‘otadi, gullash va yashashga undaydi. Yozjonni ham yaxshi ko‘raman, chunki u o‘zining qaynoq harorati bilan kuch-quvvat beradi”* (Yo‘ldosheva M., 2022, 20-21) tarzidagi mushohadalari kitobxonni qanoatlantiradi. Bu javoblar bir Olmaning emas, har bir daraxtning beradigan javobidek yangraydi, ayni vaqtda o‘quvchi barcha narsa-hodisalar o‘rtasida davomli uzviy aloqa mavjudligi haqidagi ilk ma‘lumotlarni ertak orqali o‘zlashtiradi. “Har faslning o‘z fazilati va ziynati” (Uyg‘un) borligini his qilgan o‘quvchi biroz dag‘al, murosasiz, arazchi holida ko‘ringan Qishning “oppoq uqali ko‘ylagining yenglarini silkitishi, uning yenglaridan sanoqsiz gulchalar uchib chiqib atrofni qoplay boshlashi” yoki “qop to‘la qorni o‘rmonga to‘kib” yuborishiga mahliyo bo‘ladi (Yo‘ldosheva M., 2021, 53). Yozuvchi har bir jonivorning alohida sifatlaridan ertak davomida unumli foydalanadi. Masalan, filning xartumi, karkidonning burnidagi shohi, ovqat yeyayotganida burni qimirlab turadigan quyonning shalpangqulog‘i, jayraning nayzasi, oyoqlarini eshkakdek eshkakdek ishlatib suzadigan baqa... Ular o‘zlarigagina xos xususiyatlari bilan ertakka alohida joziba bag‘ishlaydi. Hatto xalq orasida ovozigaga taqlidan g‘ulg‘ula yoki g‘ulg‘uli deb nom olgan kurkaning g‘alvali parranda ekanligi (“G‘ulg‘ulaning g‘alvasi”), ovozigaga ko‘ra g‘iybatchi kishilarga o‘xshatilayotgan Qarg‘a xola (“Oppoq quyoncha yili”) obrazlari ham xatti-harakatlari bilan bola xotirasiga osongina muhrlanadi. Hamisha ham o‘zimizda tushuntirishga ehtiyoj tuyavermaydigan ayrim holatlar, masalan, bug‘doy pishig‘i mahalida odamlar tomonidan o‘rnatiladigan qo‘riqchining vazifasi (“Qo‘riqchi”) yoki o‘quvchi uchun

jumboqli bo‘lgan hodisalar sirini kitobdan uqishga undaydi. Ularda kitobsevarlik fazilatlarini tarbiyalaydi.

Muhabbat Yo‘ldosheva asarlarida bolalarning lug‘atini boyitadigan so‘zlar uchrab turadi. Odatda, “o‘tloq”, “qumloq”, “toshloq” kabi so‘zlarning “-loq” qo‘shimchasi bilan yasashini bilamiz. O‘rin-joy otini yasovchi qo‘shimchani “muz” so‘ziga qo‘shilib, “muzloq” so‘zini yasashi yozuvchining kashfiyotidir. Shimoliy va Janubiy qutblarda dengizlardan uzoq bo‘lmagan joylarda muz bilan qoplangan keng sayhonlarning muzloq deb atalishi e‘tiroz uyg‘otmaydi. Bolalar ijodkorlari adabiy merosida “muz” so‘zi bilan bog‘liq qator yangi so‘zlar mavjud. Masalan, Anvar Obidjon ijodida “muzbaldoq”, Dilshod Rajab asarlarida “muzgulzor”, “muzqalam” so‘zlari uchraydi. Muhabbat Yo‘ldosheva “muzloq” so‘zi bilan mazkur uyadosh so‘zlar safini kengaytirdi.

O‘lkaning ma’lum hududlariga xoslangan ayrim o‘simliklar nomining badiiy asarlarda ishlatilishi bolalar lug‘atini boyitishga hissa qo‘shadi. Bu borada M.Yo‘ldosheva tomonidan ishlatilgan “ro‘vak”, “chetan” kabi so‘zlarni misol qilish mumkin. Ro‘vak “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da bir turli popukli o‘simlik yoki qamishlarning to‘pguli” ma’nosida izohlangan. “Vaqvaqa va Ninachi” ertagida “ro‘vak” so‘zining ishlatilishi voqeaning ko‘l bo‘yida, qamishlar orasida yuz berganini anglatadi. “Chetan” nomli ertakda qishda o‘z mevalari bilan qushlarni oziqlantiruvchi Chetan haqidagi ma’lumotlar bolalarni o‘lka tabiatini yaqindan bilishga o‘rgatadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “chetan” so‘zi “ra’nogullilar oilasiga mansub qizil yoki sarg‘ish, shoda-shoda mevali daraxt yoki buta” deya izohlanadi. Ertakda bu ma’lumot yana ham to‘ldiriladi: *“Nihoyat, Chetanning oppoq gullari ochildi, keyin yam-yashil mevalari paydo bo‘ldi. Achchiq izg‘irinlar qish yaqinlashganidan darak berayotgan, qayinlar allaqachon sap-sariq barglarini to‘kib bo‘lgan paytda ham Chetanning qizg‘ish barglari shohidan uzilmay, yoqutdek qizil mevalarini begona ko‘zlardan yashirib turishardi.*

- *Hoy, barglaringni to‘k, qishki uyquga kir! – yana shoshirdi Qayin.*
- *Shoshirma, mening mevalarim qor yoqqanida pishadi! – dedi Chetan.*

Haqiqatan ham qor yoqqanidan keyin Chetanning mevalari taxir ta’mini yo‘qotib, judayam shirin bo‘lib qolishdi. Chetan esa to bahor kelishgunigacha shirin mevalari bilan o‘rmonda qishlaydigan qushchalarni boqdi” (Yo‘ldosheva M., 2022, 58).

Muhabbat Yo‘ldosheva ertaklari uch yoshdan o‘smir yoshgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Uning “Buyuk Sut daryosi”, “Ertaklar dunyosi”, “Zamon ertaklari”, “Onamning ertaklari”, “O‘rmon ertaklari” turkumidagi yuzlab ertaklari bog‘cha va kichik yoshdagi bolalarning idrokini kuchaytirish va fikrlash doirasini oshirishga xizmat qiluvchi asarlar ekanligini inkor qilmagan holda bu turkumlar tarkibidagi qissa-ertaklar maktab yoshidagi bolalarning tasavvurini kengaytirishga, ularni

xayolotning uchqur olami bilan bog'lashga xizmat qiladigan asarlar ekanligini alohida ta'kidlash lozim.

Ertaklar zamirida bo'y ko'rsatgan ezgulik turli qahramonlar qiyofasida kitobxon bolakaylarga yordam berish, ularni o'z doirasidagi mushkulotlardan ozod qilishni ko'zlaydi. Erkiga egalik, ozod yashash istagi, inson turmush tashvishlaridan baland yashashi lozimligi haqidagi umumbashariy g'oyalar ertaknavis ijodining muhim o'zanini tashkil qiladi. Adiba asarlarida tanlangan mavzular mana shu o'zandan oziqlangan.

Ertak-qissalarda insoniy tuyg'ularning badiiy ifodasi. Muallifning ertaklari orasida davomli syujeti bilan ertak-qissa janriga mansubligini belgilaydigan asarlari ham mavjud. Uch kitobdan iborat "Onamning ertaklari" turkumiga kirgan asarlar orasida "Qochoq qovoqcha", "Sayohatchi pingvincha", "Ertakchi sichqon", "Sayohatchi yong'oqcha", "Tozi itlar yulduzi" kabi qissalari joy olgan. "Qochoq qovoqcha" va "Sayohatchi yong'oqcha" qahramonlari rus xalq ertagidagi "Bo'g'irsoq" ertagiga o'xshab ketadi. Ammo Qovoqcha va Yong'oqchani ozod yashashdek buyuk istak bilan barobar barchaga yaxshilik qila bilishdek ezgu sifatleri o'zlarini ham asrab qoladi, kitobxon ko'z o'ngida esa yengilmas qahramon bo'lib gavdalanishadi. "Qochoq qovoqcha" "5+" kitoblar sirasiga kirib, qovoqcha sayohatlari uning sarguzashtnamo hayotiga oshno qiladi. Asar rus tilida "Priklyucheniya malenkoy tykovki" nomi bilan nashr etilgan.

Muhabbat Yo'ldosheva qissalari orasida yozuvchining ijodiy qiyofasini belgilab beradigan "Buyuk Sut daryosi", "Qochoq pingvincha" kabi qissalarini alohida ta'kidlash lozim. "Buyuk Sut daryosi" qissasi yozuvchining ijodiy parvozigacha sabab bo'lgan asar. Bu haqda muallif tarjimayi holidan bilib olish mumkin. Ma'lum bo'lishicha, 1989-yil may oyida Muhabbat Yo'ldosheva Moskvada o'tkaziladigan Butunittifoq yosh ijodkorlar seminariga jo'nab ketadi. U Moskva yaqinida joylashgan Ximki shahridagi xushmanzara o'rmon ichida joylashgan "Olimpiyachi" sport markaziga yetib kelganidan keyingina seminarida ishtirok etuvchi o'zbekistonlik ijodkorlarning pochta orqali jo'natgan qo'lyozmalari, shu jumladan o'zining fantastik hikoyalari ham qandaydir mavhum sabablarga ko'ra yo'qolib qolgani ma'lum bo'ldi. Tabiatan o'ta ehtiyotkor bo'lgan yozuvchi seminariga jo'nashi oldidan "Buyuk sut daryosi" nomli ertak-qissasini rus tiliga o'girishga ulgurgan va yonida olib kelgan edi. Shu bois u SSSR Yozuvchilar uyushmasining binosiga borib, asarlarini qidirishga vaqt sarflamaslikka va yonida olib kelgan ertak-qissasi bilan seminarida ishtirok etishga qaror qiladi.

Seminar yakuniga yetganida esa fantastik hikoyalari yo'qolib qolgani taqdirning unga bergan eng katta siylovi bo'lganini tushundi. Chunki seminarida Muhabbat Yo'ldoshevaning "Buyuk Sut daryosi" nomli ertak-qissasi juda yuqori baholangan va uni o'sha yerning o'zidayoq SSSR Yozuvchilar uyushmasiga qabul

qilishgan edi. Seminarning konsultant-maslahatchilaridan biri o'zbekistonlik yosh yozuvchi Muhabbat Yo'ldoshevaning endigina 25 yoshga kirgani, Yozuvchilar uyushmasiga qabul qilinadigan yosh (35 yosh)ga yetishiga hali 10 yil borligini, ustiga-ustak bironta ham kitobi nashr qilinmaganini eslatadi.

Shu yerda Muhabbat Yo'ldoshevaning hayotiga ta'sir etib kelayotgan mo'jizalarning yana biriga navbat yetdi. SSSR Yozuvchilar uyushmasi kengashining birinchi kotibi, yozuvchi Vladimir Karpov:

— Hechqisi yo'q, Muhabbat Yo'ldosheva hali ko'p kitoblar yozadi va o'z qobiliyatini bizga namoyon qiladi. Men o'zbeklarning qanchalar mehnatkash ekanligini yaxshi bilaman va yosh adibaning kelajakda ajoyib bolalar yozuvchisi bo'lishiga ishonaman! – dedi. Muhabbat Yo'ldosheva Toshkentga qaytib kelganidan so'ng, 1989-yilning sentyabr oyida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga qabul qilindi.

“Buyuk sut daryosi” nomli ertak-qissa 5-9 yoshli bolakaylar uchun mo'ljallangan bir necha ertakdan tashkil topgan. Bu ertaklarda tabiat hodisalari badiiy obraz sifatida gavdalanadi. Shu asnoda inson va uning hayoti tabiat bilan uzviy bog'liq ekanligi to'g'risidagi abadiy haqiqat ochilib boradi. Yozuvchining ertaklari eng qaysar bolalarni ham tabiat hodisalarini o'rganish, orzu qilish, orzulari ortidan turli do'stlar orttirishga undaydi. Sirli-sehrli hodisalarga boy ertaklar zamirida bo'y ko'rsatgan ezgulik turli qahramonlar qiyofasida kitobxon bolakaylarga yordam berish, ularni o'z doirasidagi mushkulotlardan ozod qilishni ko'zlaydi. “Buyuk sut daryosi” qissasi ham kitobxon bola, ertak shaydosi bo'lgan Xurshidning koinot jismlari bilan yuz bergan bir-biridan qiziq sarguzashtlariga bag'ishlangan. Asar, avvalo, nomlangan sarlavhaning noodatiyligi bilan o'ziga tortadi. Adabiyotda ijodkorlar asarlarida sirlik yoki biror voqeani sir saqlash, undan uzoq vaqtgacha o'quvchini ogoh etmaslik kabi o'ziga xos usullar bilan syujet rivojini ta'minlaydigan badiiyat hodisalari uchrab turadi. Qissaning “Buyuk sut daryosi” deb nomlangan to'rtinchi hikoyasiga kelib sarlavha o'zining sirini ochadi. Aytilishicha, Somon yo'li turkumi yulduzi ingliz tilida “Milky way” deb atalar ekan. Uning so'zma-so'z tarjimasini “sutli yo'l” ma'nosini bildiradi. Muallif inglizcha variantning so'zma-so'z tarjimasidan badiiy maqsad yo'lida foydalanadi va uni “Buyuk sut daryosi” nomi bilan ataydi. Qissadagi asosiy voqealar osmonda, bola uchun cheksiz va sirli bo'lgan koinot kengliklarida yuz beradi. Asar shamol, yomg'ir, bo'ron, qor, bulut, momaqaldiroq, kamalak, yillar fasllari, hayvonlar va o'simliklarning tabiatdagi buyuk vazifasi, ya'ni sirli faoliyatidan ogoh qila boradi. Bu esa o'z-o'zidan ijodkor fantaziyasi bilan bog'lanadi.

Qissadagi samoviy jumboqlarning sirini anglashga bo'lgan ishtiyoq muallif hali bola ekanligida, olti-yetti yoshlik paytida mol fermasida ishlaydigan onasiga ko'maklashib yurgan kezlaridayoq uch bergan edi. Shu bois bolalikdan uchuvchi

bo‘lish, osmonlarni kezish qat’iy niyatga aylanadi. Ammo hayot uning taqdirini boshqa o‘zanga buradi. Bolalikdan sehrar bo‘lish, onasini fermada sut sog‘ishdek mashaqqatli yumushdan ozod etish istagi uning fantast yozuvchi bo‘lib kamolga yetishiga turtki berdi. Uning orzusi yillar o‘tib badiiy asarlarida amalga oshdi. Kuchli istak mevasi bo‘lib yaralgan ertaklar besamar ketmadi. Dunyoning turli nuqtalarida muallifning ovozi bo‘lib yangradi.

“Buyuk sut daryosi”dagi “Mening bulut do‘stim” ertagi Moskvada 2010-yil o‘tkazilgan 1-xalqaro ertaklar musobaqasida Bolalar adabiyoti yo‘nalishida birinchi o‘ringa loyiq ko‘rildi. 2019-yilda esa qissa tarkibidagi ushbu ertak Janubiy Koreyada kitob bo‘lib nashr qilindi. 2017-yil “Buyuk sut daryosi” qissasining AQShda chop etilgan nashriga serbiyalik olim Bolalar adabiyoti instituti professori Milutin Jurichovich tomonidan yozilgan so‘zboshida shunday fikrlar uchraydi: *“O‘yin, hazil, tasavvur, fantaziya, o‘simlik va hayvonot dunyosi, maktab, oila, vatan — bular bari ushbu go‘zal va qimmatli ertaklar to‘plamining asosiy mavzulari va motivlaridan bo‘lib, ularni bir nafasda va har doim bir xil qiziqish bilan o‘qib chiqish mumkin. Ushbu asarlardan adiba bolalar psixologiyasi va mentalitetiga xos xususiyatlari bilan yaxshi tanish ekanligini, maktabgacha yoshdagi bolakaylarga atab asarlar yozishni jon-dilidan yaxshi ko‘rishini kuzatish mumkin”* (Jurichovich M., Yuldasheva M., 2017, 3)

Ko‘pincha bolalar yozuvchilarining farzandlari yoki nabiralari asar bosh qahramoni sifatida gavdalanadi. M.Yo‘ldoshevaning aksar qahramonlari majoziy obrazlar bo‘lsa ham, ba’zida Gulnoz, Xurshid kabi ismlar bilan atalgan qahramonlar ham uning “adabiy aholi”si orasidan joy olganiga guvoh bo‘lamiz. Yozuvchi farzandlarining qahramon sifatida gavdalantirilishi bolani ruhlantirish va rag‘batlantirish istagi bilan barobar adabiy qahramonning jonli chiqishiga yordam beradi. Muallif ertak shaydosi bo‘lgan Xurshidning bulut bolalar – Oqbola va Oyqiz bilan bulutlar ustidagi sarguzashtini yoritarkan, Bulut xolaning mehribonligi, kezi kelganda bolalarini momaqaldiraq bo‘lib guldurab, chaqmoq chaqadigan Qasirg‘a boboning qahridan asray olishi, Shamol otaning kerakli hududlarga suv yetkazib berishdek mas’uliyatli vazifasi Hasan-Husan kamalaklarning Xurshidga ko‘rsatgan yordamdek tabiiy hodisalarni qiziqarli yo‘sinda o‘quvchiga yetkazadi. Muallif sir-sinoatga oshno bo‘lishni istagan bolaning sarguzashtlarini osmon qadar cheksiz o‘yxayollarga monand ravishda ko‘kda turli qiyofalarga kirib borayotgan bulutlar bilan bog‘laydi. Har qanday fantastik voqealarda ham muayyan hayotiy asoslar bo‘ladi. Mana shu asoslar asarning tabiiy qiziqish bilan o‘qilishiga sabab bo‘ladi. Xurshid ham turli qiyofalarga kirib borayotgan, goh birlashib, goh ajralib rangin olamiga oshno qilayotgan bulutlar haqida ularning o‘z hayot tarzlariga muvofiq, ayni vaqtda bolaning tushunchalari doirasida ma’lumotlar beradi va tabiatning sirli qonuniyatlari bola ko‘z o‘ngida ochilib boradi.

Orzuning pokiza ramzlari bilan yo‘g‘rilgan asarda ayrim mahalliy odatlar tanqidga olinadi: “Xurshid buvisidan arazladi. Rost-da, axir Maxsumaning buvisi Shirin xola bilan kun bo‘yi gaplashaveradi, hech gaplari tugamaydi. Ertak aytib bering deb ko‘rsin-chi, darrov ko‘chaga haydashadi:

– Bor, bora qol, birpasgina ko‘chada o‘ynab kelgin.

Xurshidning hafsalasi pir bo‘ladi, Maxsumaning buvisini shunaqangi yomon ko‘rib ketadiki! Qani endi Shirin xolaning shu qilganiga...”. Bugunning bolasi kattalarning bu tartibdagi odatlariga qanoat qilib ketavermaydi. Uning orzulari bisyor, kundan kun yangilanib borayotgan dunyoda ertaklargina bolaning beg‘ubor olamini boyitishga qodir. Muallif sir-sinoatga oshno bo‘lishni istagan bolaning sarguzashtlarini qahramon xohlaganidek kenglik – bog‘ning bedapoyasida davom ettirar ekan, shaftoli tagidagi bedapoyada o‘y surayotgan bolaning osmon qadar cheksiz o‘y-xayollari aynan turli qiyofalarga kirib borayotgan bulutlar bilan bog‘lanadi. Har qanday fantastik voqealarda ham muayyan hayotiy asoslar bo‘ladi. Mana shu asoslar asarning tabiiy qiziqish bilan o‘qilishiga sabab bo‘ladi. Xurshid ham turli qiyofalarga kirib borayotgan, goh birlashib, goh ajralib rangin olamiga oshno qilayotgan bulutlar haqida ularning o‘z hayot tarzlariga muvofiq, ayni vaqtda bolaning tushunchalari doirasida ma‘lumotlar beradi va tabiatning sirli qonuniyatlari bola ko‘z o‘ngida ochilib boradi.

“Sayohatchi pingvin” tabiatning kam o‘rganilgan sohasi hisoblangan okeanlar, abadiy muzliklar olamining badiiy tadqiqiga bag‘ishlangani bilan ahamiyat kasb etadi. Qorcha laqabli oq pingvinning Janubiy qutbdan Shimoliy qutbga oq kit bilan qilgan sayohatiga asoslangan “Sayohatchi pingvincha” ertak-qissasi suv hayvonlari, ikki qutb oralig‘idagi manzil-makonlar haqida boy va qiziqarli ma‘lumotlar ulashuvchi asardir. Avvalo, o‘lkamiz tabiatiga begona qushning bosh qahramon qilib tanlanishi va uning psixologik dalillanishi, g‘aroyib sarguzashtlar, geografik kenglikning bir qissa doirasiga jamlanishini qissaning yutug‘i va yozuvchining mahorati sifatida baholash lozim. Boshqalarga o‘xshamagan oppoq tusli ko‘rinishi tufayli o‘zini kamsitilgandek sezadigan Pingvin turdoshlarini izlab yo‘lga tushishi sababli Janubiy va Shimoliy qutb olamining sirli-sehrli tabiati ochilib boradi. Yozuvchi pingvinning alohida ko‘rinishidan asar voqealari uchun ochqich kalit sifatida foydalanar ekan, uni badiiy-psixologik jihatdan asoslaydi. Alohidalik har doim ham omad keltiravermasligi, uning to‘dadan ajralib qolishi mumkinligi haqidagi voqea-hodisalarni o‘qiganingizda bu qushlar oilasining xuddi odamlardek ijtimoiy qiyofaga ega ekanligi ayon bo‘ladi. Bu borada muallif inklyuziv ta‘limga oid qarashlarini uqish mumkin.

Yozuvchi qahramonning psixologik olamini ochishda Pingvinning o‘y-xayollaridan foydalanishni ma‘qul ko‘radi. Negaki, hech bir ruhiy iztirob kishining o‘y-xayollarida kechganiday o‘zini oshkora namoyon qilmaydi. “Meni tishdor kit

yoki dengiz arsloni yeb qo‘ysa ham mayli, – deb o‘ylardi Qorcha o‘zicha. – Birato‘la hammaning mazaxlashidan qutulardim”, yoki “Ey tavba, hatto pingvinlarning dushmanlari ham meni yeyishdan xazar qilishyapti-ya!” deb o‘ylardi Qorcha” (Yo‘ldosheva M., 2021, 12) kabi mulohazalarida yosh Pingvinchaning cheksiz iztirobini kuzatish mumkin. *“Oq kitning gaplarini eshitib, mitti pingvincha battar ezilib ketdi. U garchi o‘zining hech kimga o‘xshamasligini ko‘p eshitsa-da, baribir qayerlardadir o‘zi kabi oq pingvinlar yashashidan umidvor edi. Manavi oppoq kit esa uning oxirgi ilinjini ham puchga chiqardi”* (Yo‘ldosheva M., 2021, 17).

Yozuvchining maqsadi pingvinning iztirobini bo‘rttirib, unga hamdardlik tuyg‘usini ifodalashdangina iborat emas, balki sayohat davomida Pingvinni o‘zini qayta kashf etishiga erishish, ayni vaqtda notanish olam hodisotlaridan o‘quvchini bahramand etish, adabiy asardan huzurlanish hissini tarbiyalash, tafakkurda o‘zgarish paydo bo‘lishiga erishish asardan kutilgan asosiy maqsaddir. Shimoliy qutb atrofida yashaydigan oq pingvin, oq kit, oq ayiq, oq quyon, oq sichqon, oq boyo‘g‘lilar haqida eshitganingizda o‘sha makonning ham oq rangda ekanligini his qilish, muz kengliklarini xayolan tasavvur qilish, o‘z yurtigingizning tabiati bilan qiyoslash, baholash imkoni yaraladi. Yozuvchi pingvinlar hayotiga oid qiziq ma‘lumotlarni ham asar qatiga singdirib ketadiki, bu o‘quvchini bee‘tibor qoldirmaydi. Pingvinlar qanoti uchishga emas, suvda suzishda asqotishini darsliklardan bilish mumkin, ammo nafaqat sovuq o‘lkalarda, balki Galapagos orollari deb ataluvchi issiq o‘lkalarda olifta pingvinlar ham deb ataladigan oltinsoch, ko‘zoynakli va Magellan nomli pingvinlarning qumdan kavlangan uylarda yashashi haqidagi ma‘lumotlar asarning ommabopligini ta‘minlaydi. Asarning yana bir personaji oq kit bilan bog‘liq faktlar ham qissaning ilmiy qimmatini oshiradi. Ma‘lum bo‘lishicha, oq kitlar bir ko‘zini ochib uxlagani uchun bir vaqtning o‘zida suvda suzib ham ketaverishi mumkin ekan. Oq pingvinni yelkasiga mindirib olgan oq kit sayohat davomida uxlamaydi. Suv osti olamining vakillari – peshonasidan shu‘la sohadigan qarmoq baliq, favqulodda eshitish qobiliyati yaxshi rivojlangan ko‘k kitning ulkanligiga qaramay, mayda suv o‘tlari bilan oziqlanishi kabi ma‘lumotlar suv osti dunyosini har kim o‘zicha kashf etish imkonini beradi. Shuningdek, yirtqichligiga qaramay, tishdor kitlarda oilaviy an‘analar boshqalarnikidan farq qilishi, ularning yashash tarzlari, o‘zaro kuchli mehr-oqibatlar haqida ham “Sayohatchi pingvin” ertak-qissasidan bilib olish mumkin.

Muhabbat Yo‘ldosheva qissalari orasida bog‘cha bolalariga uchun maxsus atalgan “Alifbo bog‘i” hamda “Raqamlar jumbog‘i” deb nomlangan asarlar mavjud. O‘zbek bolalar adabiyotida alifbo harflariga asoslangan alifbo manzumalar mavjud. Hatto yozuvchi Erkin Malik alifbo harflariga asoslanib “Alifbo ensiklopediyasi”ni yaratgan. Ammo “Alifbo” kitobi bilan sayohatga chiqqan qahramon haqidagi asar

M.Yoʻldosheva ijodiga xos. Kitobxonlik, ertak tinglashga oshuftalik M.Yoʻldosheva qahramonlarining alohida xislati. Yerdagi gazetxon ukki (ayrim ertaklarda u muallimlik ham qiladi) va uning nabiralaridan koʻkdagi Oymomo buvi va har tunda ertak tinglaydigan yulduzchalargacha sizni ertaklarning sirli olamiga chorlaydi, ezgulikka hamohang qiladi. Bunday ertaklarni “Ertakchi sichqon”, “Tozi itlar yulduzi” turkumidagi kirgan ertak-qissalarida kuzatish mumkin. “Alifbo bogʻi” ham mazkur mavzuni oʻziga xos tarzda davom ettiradi. Alifboning keng olamida kezgan Xurshid sayohat davomida bogʻ, bolalar bogʻchasi, dengiz, dasht, yaylov, fermaga boradi. Alifbo kitobi bilan toʻyib sayohat qilgan Xurshid oʻzi mustaqil topishmoqlarni topa oladi, tezaytishlarni toʻqiy oladi.

“Raqamlar jumbogʻi” asarining voqeasi togʻlar orasida joylashgan “Matematika” deb atalgan qasrda boʻlib oʻtadi. Noldan toʻqqizgacha boʻlgan harflar qasr yonidan oqib oʻtadigan Hisob daryosida choʻmilishar, sayr qilishar shu vaqtlarda topishmoqlar bilan bir-birlarini sinashar edi. Oʻz-oʻzidan Beshjon oʻzining zukkoligi bilan boshqa raqamlardan ajralib turadi. Topishmoq aytish huquqi ham shu raqam zimmasiga tushadi. Shunday qilib asar davomida birlik sonlar ishtirokida qoʻshuv va ayiruv natijasida yuzaga keladigan topishmoqlar paydo boʻladi. “Alifbo bogʻi va “Raqamlar jumbogʻi” kitoblari kichik yoshdagi bolalarni savodga oʻrgatishda oʻziga xos qoʻllanma boʻlib xizmat qiladi.

“Qoʻhiqof shahzodasi” – mifologik syujetga asoslangan ilmiy fantastik asar. M.Yoʻldosheva ertak janri imkoniyatlaridan nasrning boshqa janrlarida muvaffaqiyatli foydalana biladigan ijodkorlardan. Uning “Qoʻhiqof shahzodasi” ertak-romani bu jihatdan tadqiq qilishga arziydigan asardir. Roman 2013-yilda Koreyada oʻtkazilgan “Osiyo mamlakatlari miflari, ertaklari va eposlari motivlari boʻyicha ssenariylar” Xalqaro tanlovida 1-oʻrinni egalladi, 2020-yilda esa “Eng sehrli bayram” ertaklar tanlovining, 2022-yilda esa “Ayolga ehtirom” Respublika ijodiy tanlovining gʻolibi boʻldi.

Roman 19 bobdan iborat. Har bir bob sarlavhasi maʼlum muammoning syujet rivojidagi oʻrnini belgilovchi, ayni vaqtda, kitobxonni yangi voqealar silsilasiga chorlovchi vazifani bajaradi. Yozuvchi bosh qahramonning sarguzashtli hayotini yoritish barobarida jamiyat muammolari haqidagi mushohadalarini ham oʻrtaga tashlaydiki, buni ziyrak kitobxon tez anglaydi. Shahzodning nodon shifokor tufayli nogiron boʻlib qolgani, Qizilqum va Qoraqum safi Orolqum bilan kengayib borgani, Bahodirning bakalavr darajasini ming yetishmovchiliklar bilan arang bitirgani-yu, magistraturada oʻqish uning uchun armonga aylangani kabi yillar davomida jamiyatda yetishib kelgan muammolar roman sarguzashtlari tarkibiga singdirib yuboriladi.

“Qoʻhiqof shahzodasi” qahramonlarning noodatij xususiyatlari, oʻzigagina maʼlum sirlari, yashirin va gʻaroyib doʻstlar, parallel olamda roʻy beradigan

hodisalar, bir soʻz bilan aytganda, fantastik taxayyul, bir tomondan, jahon bolalar adabiyotidagi mavjud anʼanalarning oʻzbek bolalar adabiyotida muvaffaqiyat bilan davom etayotganini tasdiqlasa, ikkinchi tomondan, xalq ogʻzaki ijodining sehrli dunyosi zamonaviy nasrga joziba bagʻishlayotgani ming yillar davomida mavjud boʻlgan anʼanaviy qahramonlarning zamonlar osha yashovchanligini koʻrsatadi. Jahon adabiyotida alohida bolalarning qahramonligidan hikoya qiluvchi “Tomda yashovchi Karlson”, “Piter Pin”, “Matilda”, “Narniya saltanati” kabi ertak-qissalar, “Garri Potter” turkum romanlari kabi qator asarlarda gʻaroyib tabiatga ega alohida obrazlar va ular bilan bogʻliq gʻayritabiiy hodisalar, mifologik olam vakillarining zamon bilan hamnafas turmush tarzi yoki “Sariq devni minib”, “Alamazon va uning sarguzashtlari” kabi oʻzbek bolalar fantastik asarlaridagi sirli makon va gʻaroyib sehrli detallar bilan bogʻliq hodisalarga oʻxshash voqelik “Qoʻhi qof shahzodasi”da ham roʻy beradi. Bola tabiatiga xos xayolot olamining boyligi, tasavvurning kengligi bolalar ijodkorlarining diqqat markazida turgani bois bolalar uchun yoziladigan asarlarning koʻpchiligida fantastik elementlar ustunlik qiladi.

Asar oʻzini har jihatdan omadsiz deb hisoblaydigan, ammo favqulodda isteʼdodi bilan boshqalarni koʻp marta hayratda qoldirgan, tengdoshlari orasida “tirik ensiklopediya” nomiga sazovor boʻlgan Shahzod ismli yigitning sarguzashtlariga bagʻishlangan. Shahzod goʻdakligidayoq “daho bola” nomini olib, hamma oʻn bir yil oʻqiydigan maktabni yetti yilda tugatgan. Oʻn uch yoshidayoq universitet talabasi boʻlgan, davlat granti asosida oʻqishga qabul qilingan, shaxmatda tengdoshlarini qoyil qoldirgan, Prezident stipendiyasi sohibiga aylanib, oʻn yetti yoshida magistratura talabasi boʻlgan. Biroq Shahzodning oʻzi taqdirning bu siylovlariga qoniqmaydi. Chunki u jismoniy nogiron. Shu sababli oʻzini hamisha kamsitilganday his qiladi. Ammo yozuvchi Shahzodni omad va omadsizlik orasidagi iztirobini koʻrsatishni maqsad qilgan emas, Shahzod obrazi misolida har qanday iztirob va noyob iqtidor oʻz egasini shaxs sifatida tarbiyalay olishini koʻrsata olgan, romanda qalamga olingan voqeliklar inson maʼnaviy va ilmiy tafakkuri orqali barcha sinovlarni yengib oʻtishga qodir ekanligining badiiy tasdigʻiga xizmat qilgan.

Shahzodning shaxsiy hayotiga ekskurs qilishi bilan boshlangan asar kompozitsiyasi dovonda boshlangan uyurmaning toʻsatdan paydo boʻlishi bilan sirli tus ola boshlaydi. Uyurma ikki olam oʻrtasidagi nafaqat vositachi, balki voqealarni mifologik olamda davom etishiga sabab boʻladigan detalga aylanadi. Sarguzasht mistik asarda syujet sirliligini taʼminlovchi kutilmagan priyomlar ishga tushadi. Uning biri vodiy dovonida paydo boʻlib, insoniyatni parallel olam bilan ming yilda bir marta bogʻlaydigan uyurma boʻlsa, ikkinchisi nomaʼlum choʻlda Shahzodga yoʻl koʻrsatib, uni devlarning changalidan ozod boʻlishiga va parilar yurtining malikasi Guliqahqah pariga roʻpara qilgan donishmand kaltakesak bilan bogʻliq voqealardir. Asarda zamonaviy texnologiyadan yetarlicha xabardor

Shahzodning doimiy hamrohi bo'lgan qator buyumlar – noutbuk, shaxmat, hatto bir o'ram saqich ham Shahzodning mushkulotlardan xalos bo'lishiga muayyan vazifa bajaradi. Xalq doston va ertaklaridagi mifologik qahramonlar – Balo, devlar, parilar kabi qadimiy va abadiy obrazlar bilan zamonaviy turmush tarziga ega o'smirning noma'lum makonda to'qnashuvi, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi keskin ziddiyatlar, ezgulikning ulug'vor kuchi kabi azaliy masalalar romanga olamshumul muvaffaqiyat keltirdi.

M.Yo'ldosheva avvalgi nasriy asarlarida bo'lganidek, bu sarguzasht asarida ham ilmiy tafakkurning cheksiz imkoniyatlariga urg'u berdi. Agar avvalgi asarlarida ilmiy axborotdan keng foydalanilgan bo'lsa, bunda ilmiy tafakkur fantastik kenglikda o'zini namoyish qildi.

XULOSA

Ko'plab bolalar ijodkorlarining adabiy ertaklarga murojaat qilishi bu janrning ommabopligini ko'rsatish bilan barobar muallifning kognitiv qarashlarini mustahkamlashga imkon beradi. Ayni vaqtda adabiy ertaklarning janr sifatidagi maqomi uning qator belgilariga urg'u berish mumkinligini asoslaydi. Bu xususiyat adabiy ertakda muallifning voqeani ancha vaqtdan beri kuzatib yurganlik ottenkasi mavjudligi, roviyning bayon qilishdan kuzatuvchi maqomiga o'tishi, psixologik omillarga e'tibor qaratilishi asnosida drammatizmning kuchaytirilishi, ertak qahramonlarining zamon bilan hamnafas bo'lishi bilan belgilanadi. Mana shu jihatlari adabiy ertaklarni xalq ertaklaridan farqlaydi.

Tabiatning fusunkor go'zalligini his qila oladigan yozuvchi nutqda kam qo'llanadigan ayrim so'zlarning batafsil izohini berishi yoxud shu so'z bilan bog'liq epizodlarga batafsil o'rin ajratishi, shuningdek, lug'atni yangi so'zlar boyitishi, bu bilan asardagi har bir detalni bee'tibor qoldirmaslik, yangi topilmalarning o'quvchida zavq uyg'otishiga erishishdek mahoratini adabiy asarlarda ko'rsata olgan. Adabiy asarlaridagi tasvirlarda muallifning atrofni sinchkovlik bilan kuzatishi, har bir voqelikdan hayotiy saboqlar chiqara bilishi, ayni vaqtda borliqni mavjud bo'lganiday qabul qilish va uni boricha o'quvchiga yetkazishi kabi obyektiv xususiyatlar muhim o'rin tutadi. Ayrim tabiiy hodisalarning real holatidan badiiy haqiqatlarni tasdiqlashda foydalanilgan epizodlarda esa ta'limiy va tarbiyaviy xususiyatlar uyg'unlashib borayotganini kuzatish mumkin.

M.Yo'ldosheva ertaklarida hayotiy konsepsiyalarini mitti janr bag'riga singdira olish xususiyati, ayniqsa, oila va milliy qadriyatlar misolida bo'rtib ko'rinadi. Shu bilan barobar adabiy asarlarda ilmiy bilish doirasining o'lkamiz hayotidan dunyo geografik kengliklargacha yoyilishi yozuvchi ertak-qissalarining asosiy jihati bo'lsa, ilmiy fantastika yo'nalishida bitilgan "Qo'hiqof shahzodasi" deb nomlangan ertak-romani folklor motivlari va mifologik obrazlarning bugunning

qahramoni bilan uygʻunlashtirishi M.Yoʻldosheva ijodining yana bir muhim qirrasini hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Jurichovich Milutin. Writing Skills for Children (Bolalarga yozish mahorati. Kitob soʻz boshisining tarjimai Gulnoz Tojiboevaga tegishli) / Muxabbat Yuldasheva/ Great Daire River. 2017. United States of Amerika. – P. 112
2. Toʻlaboeva R. Rotanov A. Oʻzbekistonda zamonaviy bolalar kitoblari sharhi // Oʻzbekistonda zamonaviy bolalar kitoblari sharhi // Xorijiy lingvistik va lingvodidaktika – Zarubejnaya lingvistika i lingvodidaktika – Foreign Linguistics and Linguodidactics Journal home page: <https://inscience.uz/index.php/foreign-linguistics>. Special Issue – 5 (2024) / ISSN 2181-3701 – 51- 57- bet.
3. Yoʻldosheva M. Mening bulut doʻstim. – Korea-Central Asia. 2019. – 37 b.
4. Yoʻldosheva M. Buyuk sut daryosi. Muhabbat Yoʻldosheva - Toshkent: “Donish chirogʻi”, 2020. - 138 b.
5. Yoʻldosheva M. Arazlagan qish / Onamning ertaklari turkumidan. 1-kitob. – Toshkent: Yurist-media markazi. – 2021. – 112 b.
6. Yoʻldosheva M. Sayohatchi pingvincha / Onamning ertaklari turkumidan. 2-kitob. – Toshkent: Yurist-media markazi. – 2021. – 112 b.
7. Yoʻldosheva M. Ertakchi sichqon / Onamning ertaklari turkumidan. 3-kitob. – Toshkent: BEST BOOK, MChJ. – 2023. – 112 b.
8. Yoʻldosheva M. Oʻrdakchanning siri / Oʻrmon ertaklari turkumidan. 4-kitob. – Toshkent: FUTURE BOOKS. – 2022. – 64 b.
9. Yoʻldosheva M. Erkatoy qovun / Oʻrmon ertaklari turkumidan. 5-kitob. – Toshkent: FUTURE BOOKS. – 2022. – 64 b.
10. Yoʻldosheva M. Alifbo bogʻi. Ertak-qissa. – Toshkent: Dunyo nashr. – 2025. – 36 b.
11. Yoʻldosheva M. Raqamlar jumbogʻi. Ertak-qissa. – Toshkent: Dunyo nashr. – 2025. – 36 b.